

EMOTSIYALAR VA ULARNING TILDA MADANIY JIHATDAN ANIQLANGAN JARAYONLASHUVI

Shermatov A.A.¹, Haydarova S. M.²

Annotatsiya:

Inson va hissiyotlar ajralmas jihat hisoblanadi. Emotsiyalar kishilarda til paydo bo'lishidan oldingi davrda ham imo-ishoralar darajasida mavjud bo'lgan. Emotsiyalar inson hayotida katta rol o'ynaydi, chunki inson madaniyatining birinchi navbatda, emotsional debochanning shakllanishi ahamiyatli ekanligini namoyon etadi. Ko'rinib turibdiki, emotsiyalarni o'rganish shu qadar mushkulki, ular hozirgi kunga qadar ilmiy tadqiqotlar va ilmiy maqolalar uchun dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: emotsiya, hissiyot, gender, kommunikativ, emotsional, verbalizatsiya, emotsional xulq-atvor, madaniyat.

doi: <https://doi.org/10.2024/k2ycz465>

Anglashiladigan narsa bilan sezgi orqali idrok qilinadigan narsa o'rtasidagi farqni Aflotun davridan boshlab faylasuflar o'rganib kelishgan. Bu holat emotsiya va aql o'rtasidagi chegaralar haqida munozaralar uchun asos yaratdi. Klassik g'arb falsafasi hissiyotlarni (emotsiyalar, his-tuyg'ular, tushunchalar va boshqa shu kabi) va aqlni (hukmlar, abstraksiyalar, g'oyalar va boshqa shu kabi) ajratib turadigan ozmi-ko'pmi jihatlar bilan bog'lab turadi. Ammo inson bilish faoliyatining bu ikki tomonini ajratish "sensatsiya va ratsionalizm o'rtasidagi qarama-qarshilik" ga olib keldi [Панов, 1992:4].

Shu bilan birga, ko'plab olimlarning qiziqish doirasiga insonning u yoki bu jinsga mansubligiga qarab emotsiyalarni o'rganish kiradi. Masalan, Charlz Darvin "onalik muhabbatidan kuchliroq emotsiya yo'q" deya ta'kidlagan [Дарвин, 2001:72]. Gender tadqiqotlarning o'sishi bilan zamonaviy tabiiy va ijtimoiy ilmiy fikr hissiyotdagi gender farqlarining namoyon bo'lishiga katta e'tibor qaratdi. Umuman olganda, dunyo, shaxs va his-tuyg'ular o'rtasidagi munosabatlarni quyidagicha ifodalash mumkin: dunyoni aks ettirishga qodir bo'lgan dunyo (obyekt) va shaxs (subyekt) mavjud. Tuyg'ular inson uchun dunyodagi ob'ektlarning ma'nosini ifodalash orqali aks ettirish jarayonini nazoratga oladi. Emotsiyalar psixik hodisa sifatida inson ongida uning voqelikka bo'lgan hissiy munosabatini aks ettiradi. Ushbu hissiy munosabatlar sub'ektiv bo'lsa ham, ijtimoiy onglidir va shuning uchun ko'proq yoki kamroq xarakterlanadi. Shunday qilib, emotsiyalar hamisha sabab, subyekt va obyektga ega.

Emotsiya va kognitsiya o'rtasidagi yaqin munosabat aniq, chunki emotsiya ong bilan bog'liq: "ma'lum bir emotsionallik ongning oddiy holatlarini tavsiflaydi va kognitiv jarayonlardan oldin keladi" [Изард, 2000:123].

Tilda aks etgan his-tuyg'ular emotsionallik maqomiga ega bo'ladi. Shunday qilib, "emotsiyalar" ning kategorial kontseptsiyasi ostida V.I. Shaxovskiy "emotsional munosabatlar, holatlar, reaksiyalar; emotsionallik, his-tuyg'ularni tasniflash; emotsional tafakkur, ong, induktiv-pragmatik (empirik) tushunchaning mazmuni; his-tuyg'ularni ifodalash, nomlash, tavsifi" kabi tushunchalarni taklif qiladi [Шаховский, 1988:26]. Ayni shu

¹ *Shermatov A.A., SamDChTI dotsenti*

² *Haydarova S. M., SamDChTI magistranti*

o'rinda "emotivlik" esa "emotiv semantika, valentlik, funktsiya, sema, konnotatsiya, ambivalentlik, lakuna, nominatsiya, derivatsiya, pragmatika; emotiv ma'no, so'z: so'z ma'nosining emotsional komponenti; so'z ma'nosining baholovchi, funktsional-stilistik, ekspressiv komponenti; so'z, matn, tilning ifodali vazifasi; tilning his-tuyg'u vositalarini yo'naltirish, induksiya qilish, o'stirish; hissiy, ta'sirchan, konnotativ; emotivlarning leksik-semantik sohasi" degan ma'noni anglatadi. Emotiv birliklar ko'rinishidagi til inson emotsiyalarini o'rganish uchun kalit bo'lib, u emotsiyalarni belgilaydi. Shu bilan birgalikda emotsiyalarni ifodalaydi, tasniflaydi hamda ularni eksplikatsiya / implikatsiya uchun sharhlaydi. Bunday holda, badiiy adabiyot emotivlarning "depozitariy"si vazifasini bajaradi, chunki u insonning verbal va averbal emotsional xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularni yetkazish usullari, vositalari va usullarini tasvirlaydi hamda insonning emotsional refleksiv usullarini qamrab oladi. Badiiy matnda emotsiyalar moddiy, kuzatilishi mumkin bo'lgan va his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga xizmat qiladigan o'ziga xos belgilar, emotiv shifterlar orqali kuzatiladi [Nischik, 1992:190]. Biroq, til voqelikning bilvosita aksidir va shuning uchun inson hayotining ko'p qirralarini so'zlar bilan ifodalab bo'lmaydi. Nutq sheriklarining emotsional holatlari tilda ma'lum darajada approssimatsiya bilan qayd etiladi, chunki "til qoplamasi" hech qachon insonning butun "emotsional tanasini" qamrab ololmaydi, chunki, uni teshiklari bor, qashshoqroq, primitiv" hisoblanadi. Demak, til "biz o'ylagan va gapirganimizda sodir bo'ladigan ko'rinmas ma'no yaratish jarayoni aysbergining uchi". Bundan kelib chiqadiki, emotsiyalarning ikkita semiotik tizimi ya'ni Body language va Verbal language bilan izohlanadi. Birinchisi ikkinchisidan ishonchliligi, tezligi, bevosita, samimiylilik darajasi va hissiyotlarni ifodalash va yetkazish sifati, shuningdek, hissiyotlarning adekvatligi bo'yicha retsipientni dekodlash uchun ustundir.

Tilning tarixiy, ijtimoiy, milliy va boshqa xususiyatlarining barcha xilma-xilligida uning yaratuvchisi va foydalanuvchisiga murojaat qilmasdan turib, uning funktsional tomonini to'liq anglab bo'lmaydi. Emotsiyalar haqidagi xalq g'oyalari hissiyotlar tuzilishi va emotsional hayotning tabiati haqida chuqur tushunchani ochib beradi [Johnson-Laird., Oatley, 1992:201-233]. Bu tushunchalar emotsiyalar tilida, ayniqsa ma'lum bir tilning emotsional leksikasida "kristallangan" bo'ladi.. Masalan, "ingliz tilida so'zlashuvchi kishilar uchun grief, remorse, disappointment va shame (qayg'u, pushaymonlik, umidsizlik yoki uyat) so'zlarini ishlatish qoidalari bir-biridan sifat jihatidan farq qiladigan o'ziga xos ichki tuyg'ularni hisobga oladi".

Bundan tashqari, T.V. Larina ingliz kommunikativ madaniyatida emotsiyalarning, ayniqsa salbiy ma'noda ochiq namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Mazkur fikrni emotional, effusive, demonstrative, excitable kabi emotiv birliklarning ingliz tilida salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi bilan tasdiqlash mumkin. Shunday qilib, "mast odamni ingliz tilida tavsiflash uchun kulgili idiom mavjud - tired and emotional, tom ma'noda charchagan va emotsional degan ma'noni anglatadi" [Ларина, 2005:150-160]. Umuman olganda, sotsiologik, psixologik va lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barcha kishilar bir vaqtning o'zida "til va emotsional xususiyatlar bilan yo'g'rilgan mavjudot"dir.

Emotsiyalar "madaniyat taksoni" hisoblanadi va turli til madaniyatlarida ularning verbalizatsiyasi emotiv ma'nolarning shakli, hajmi va sifati har doim ham mos kelavermaydi [Шаховский, 2008: 288]. Til shaxsiyatining emotsional sohasini o'rganishga madaniyatlararo yondashuv shuni ko'rsatadiki, butun bir lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining turli xil dominant emotsiyalari ular tilining emotsional funktsiyasining verbal mazmunini belgilaydi. Biroq, emotsional tuyg'ularning yuqorida qayd etib o'tilgan umumiylik holati mashhur emotsional reaksiyalar ma'lum bir madaniyatning barcha vakillari tomonidan hamda mutlaqo to'g'ri bajarilishini anglatmaydi. Shuni inobatga olgan holda prof. S.G. Shafikov: "Ikki xil kishining bir xil barmoq izlarini topib bo'lmaganidek, tilning barcha leksemalariga bo'ysunadigan biron bir yagona mantiqni anglab bo'lmaydi [Шафиков, 2010:381-382]. Shunday qilib, har bir tilda yuz minglab "tilga xos mentalitet" va

“tilga xos ong” hukmronlik qiladi. Bir madaniyat qobig’idagi kishilar bir xil his-tuyg’uga va fikrlashga ega emas. Xuddi shunday turli madaniy guruh vakillari kabi bitta umumiy qobiqda bo’lsa ham, deylik, misol tariqasida (g’azab, qo’rquv, qayg’u, quvonch, g’azab, hayrat va boshqalar) kabi emotsiyalarni bir xilda his qila olmaydi hamda fikrlay olmasligi aniq.

Madaniyatlararo muloqotda emotiv xulq-atvorning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish natijalari shuni ko’rsatadiki, har qanday Yevropa madaniyatida (yoki AQSh va Kanadada) yuqori ma’lumotli ijtimoiy guruhlar vakillari emotsiyalarni verbal yashirish texnikasini yaxshi bilishadi. Pastki ijtimoiy qatlam vakillari orasida qo’rquv, g’azab, qoniqish kabi egotsentrik emotsiyalarning tashqi ifodalanish darajasi ancha yuqori. Shunday qilib, konkret emotsiyalarni ifodalash uchun ijtimoiy-madaniy qoidalar ham shaxslar (masalan, yosh, jins xususiyatlari, tarbiya me’yorlari), ham ijtimoiy guruhlar vakillari (kasbiy, ta’lim, siyosiy, diniy) o’rtasida farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Панов В.Г. Эмоции. Мифы. Разум. — М.: Высшая школа, 1992. — С.4.
- [2]. Дарвин Ч. О выражении эмоций у человека и животных. — М.; Харьков; Минск: Питер, 2001. — С.72.
- [3]. Изард К.Э. Психология эмоций / пер. с англ. — СПб.: Питер, 2000. — С.123.
- [4]. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе (на материале англ. яз.): дис. ... д-ра филол. наук. — М., 1988. — С.26.
- [5]. Ларина Т.В. Фатические эмотивы и их роль в коммуникации // Эмоции в языке и речи: сб. науч. тр. / под ред. И.А. Шаронова. М.: РГГУ, 2005. — С. 150—160.
- [6]. Шафиков С.Г. Национальный менталитет, межкультурная коммуникация и язык // Ното Loquens в языке, культуре, познании. Ч. I. — Уфа: БашГУ, 2010. — С. 381—382.
- [7]. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций: монография. — М., 2008. — С.46.
- [8]. Johnson-Laird P.N., Oatley K. 1992. Basic emotions, rationality, and folk theory function, folk theory and empirical study // *Cognition and Emotion*. 1992. — № 6. — P. 201—233.
- [9]. Nischik R. Betrayal psychohistorically: The Representation of emotions in the British Drama // *Proceedings*. — Niemeier, 1992. —P.190.
- [10]. Шерматов, А. "Илмий матнларда дейктик ҳаволаларнинг прагматик хусусиятларига доир." *Иностранная филология: язык, литература, образование* 3.3 (2018): 68.